

**MILLIY OHANGLARDA ( DUET,TRIO, KVARTET) BO'LIB IJRO  
ETISH USLUBI (G'IIJJAK SOZIDA)**

*Mahammadjonova Jasmina*

*Yunus Rajabiy nomidagi*

*O'zbek milliy musiqa san'ati instituti 2- kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xumoyun Xaydarov*

**Kalit so'zlar:** An'anaviy ansambl, g'ijjak,

O'zbek musiqiy ijrochilik san'ati o'z taraqqiyoti davomida ko'p asrlik an'analarni meros qilib olib , xalqlarning e'tiqodi, dini va eng muhimi ma'naviyat rivojiga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu an'analar asrlar davomida ustozdan-shogirdga o'g'zaki yo'l bilan o'tib, unda an'anaviy ustoz shogird uslublari keng rivojlangan [8.5]Ma'naviyat va ma'rifatni qo'llab quvvatlash, rivojlantirishga mo'lljallangan qator qarorlarida yosh avlodni tarixiy qadriyatlarimizga , madaniy merosimizga hurmat qilishga alohida e'tibor qaratilgan

O'zbek xalqining musqiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy tarraqiyot xalq musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, bastakorlik va folklore shaklan va usluban bir- birini to'ldirib borgan[5.8]. Ushbu musiqa merosimiz bugungi kunda ham madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida ommaga namoyon bo'lmoqda. An'anaviy cholg'u ijrochiligi xalq hayoti va ijodi bilan bog'lib bo'lib uning rivojlangan qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. Ko'pgina musiqaga oid manballarda an'anaviy milliy cholg'ular rang-barang tarzda, uzoq yillar davomida o'rganilib kelinganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Sozandalarning bu boradagi izlanishlari hozirgi kunda muhim omillardan biri hisoblanadi. Cholg'u ijrochiligi milliylik, barkamollik, ohangi o'ziga xos, ta'sirchanligi va shunga o'xhash bir necha fazilatlari tufayli xozirgacha saqlanmoqda va hozirgi kunda e'tibor bilan o'rganilmoqda.[5.8]Ayniqsa ustozlarimizning bizga qoldirgan ulkan meroslarini o'rganish biz kabi yosh avlodning hozirgi kundagi eng muhim vazifalaridan biri hisoblanmoqda. Hozirgi kunda ijrochilik sohasi nafaqat an'anaviy ko'rinishda, balki bastakorlik yo'nalishlarida ham sezilarli darajada aks etmoqda. Ulkan an'anaviy ijrochilikni milliy an'analarga tayanib bir necha yil oldin vafot etgan g'ijjakchi ustozlarimiz va hozirgij ijrochilarimiz misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Bunday ustozlardan To'xtasin Jalilov, Saidjon Kalonov, G'ulomjon Xojiqulov, G'anijon Toshmatov, Abduhoshim Ismoilov, G'ulomjon Ro'ziboyev, Komiljon Jabborov, kabi ko'plab bastakor, hofiz va sozandalarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi kunga kelsak o'zbek xalqining boy nusiqa merosini o'rganish va ularni xalq orasida kend davrada targ'ib qilish hozirgi yosh ijrochilarimizning eng muhim

vazifasi hisoblanadi. [5.9] Bizning o‘zbek milliy madaniyatimiz negizi juda qadimiy bo‘lib, betakror an‘analarga ega bo‘lganligi uchun hozirgi ayni vaqtgacha qiziqib o‘rganilib kelinmoqda. Bu o‘rganilish natijasida yangidan- yangi yo‘nalishlar, janr, shakl uslublar natijasida musiqamiz yanada boyib bormoqda yan‘i bezatilmoqda desak ham bo‘ladi. Demak bu gaplardan biz xulosa chiqarishimiz mumkunki biron bir cholg‘u asbobi yordamida insonni ichki kechinmalarini, biron bir voqealikni bemalol aks ettirish mumkin degan fikrni ko‘rishimiz mumkin. Cholg‘u ijrochiligidan merosimiz ham an‘ana sifatida davom ettishi mumkin.

Ijrochilik an‘analari xalq ijodiyotidagi oddiy va murakkab namunalrga ega. Maqom ijrochiligi murakkab namunalarga kiradi. Shu bois dastlab ijrochilik yakkaxon tarzada asta- sekin jamoa ya‘ni ansambl bo‘lib ijro etish shakillari yuzaga kelgan. Har bir xalqning o‘z milliy musiqasi va milliy qadriyatlari negizida ansambl yo‘llari shakillangan. Bizning musiqa madaniyatimiz rivojlanishi negizida o‘zbek maqom ijrochiligi yoki maqom yo‘llariga mansub mumtoz musiqa ijrochiligi ham o‘ziga xos ansamblli ijro an‘analari yuzaga kelgan.

Ansambl so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga etibor bersak fransuzcha so‘zidan olingan bo‘lib birlik ohangdoshlik, uyg‘unlik degan ma‘nolarni anglatadi[7.3] Musiqa san‘atida ansamb ko‘p ma‘no va turlarga egadir Jumladan ansambl muayyan musiqa asarlarni bir necha ijrochilar tomonidan birga ijro etish yana bir ma‘nosi sozanda va xonandalarning kichikroq to‘dasi va ularga mo‘ljallangan asari, yirik janrlar tarkibida uchraydigan ansambllar. Oratoriya, opera, kantata janrlarida kichik ansambllar keng qo‘llaniladi. Ijrochilar soniga qarab – duet, trio, kvartet, kvintet bo‘lishi mumkin.[6.6]

Soddalashtirib aytsak ansambl jamoa bo‘lin faoliyat olib borishga aytildi. Ansambl so‘zini umumiylar ma‘nosini aytsak ansdambl bu bir oiladir. Ansamblidagi tarkibiga kirtuvchi har bir sozanda – ijrochi bu alohida dunyo hisoblanadi. Ijrochining kamolot sari intilishi uchun har bir ijrochi musiqiy asarlarning mohiyatini g‘oyaviy va badiiy idrok etishi, o‘z mahorati bilan cheklanib qolmay ko‘proq asarlarni eshitib tahlil qilishi, jamoadagi boshqa ijrochilarini eshitishi va qalban his etishi lozimdir. An‘anaviy ijrochilik ansamblida sozlar uyg‘inligiga erishish muhim ahamiyatnmi kasb etadi.[7.4] Ansamldagi g‘ijjak, doira, chang, rubob, tanbur, qo‘shnay, dutor, nay, ud sozlari ijro jarayonida mahoratlari oshib boradi. Ansamblsagi har bir cholg‘u yetakchi vazifani bajaradi, bu cholg‘ular orasida g‘ijjak sozi an‘anaviy ansamblida muhim ahamiyatni kasb etadi. Ansamblidagi har bir cholg‘uchi doira sabog‘idan xabardor bo‘lishi kerak , shunda asar ravon va mukammal sadolanadi. An‘anaviy ansambl ijrochiligining xarakterli xususiyati shundaki ularning tarkibiga katta va kichikligidan qat‘iy nazar ulardagi ijrochilar kuy, qo‘shiqlarni ustozlarimizda qolgan uslublardan foydalananib ijro etiladi.

Ayni payitda an‘anaviy ansambllar vohaviy , uslubiy hususiyatlar doirasida shakillanib borayotganing guvohi bo‘lamiz. Bunga Buxoro, Xorazm, Toshkent-

Farg‘ona, Samarqand, Andijon viloyatlarida faoliyat olib borayotgan ansambillarini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Kun sayin bu ansamblar rivojlanib bormoqda. An‘anaviy ansambl ijrochiligining xarakterli xususiyati shundaki ularning tarkibiga katta va kichikligidan qat‘iy nazar ulardagi ijrochilar kuy, qo‘shiqlarni ustozlarimizda qolgan uslublardan foydalanib ijro etilmoqda. An‘anaviy ansamblida g‘ijjak sozi yetakchi vazifani bajaradi. An‘anaviy g‘ijjak soziga kelsak bu cholg‘u o‘zbek xalqining eng qadimiy va sevimli cholg‘ularidan biri hisoblanadi.

An‘anaviy ansamblidagi cholg‘u asboblarini xuddi simfonik orkestradagi kamonli sozlar guruhi kabi yetakchilik vazifasini bajaradi g‘ijjakni inson ovoziga yaqin , nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boy, ijro uslubi tufayli milliy mumtoz musiqa ansambllarida asosiy o‘rinni egalaydi. Har bir cholg‘u asbobining o‘z ijro uslubi bo‘lgani kabi g‘ijjakning ham bir necha uslublari mavjud. O‘zbekistonda g‘ijjak ijrochiligining bir necha o‘ziga xos uslublari Andijon, Buxoro va Xorazm an‘anaviy maktablari orqali xalqga va asosan musiqa ixlosmandlariga namoyon bo‘lgan. Farg‘ona vodiysi hofizlik san‘ati hamda sunray ijrochilik an‘analari ta‘sirida shakillangan Andijon maktabida g‘ijjak sozini mayda urg‘u, kuy tuzilmalarini uzmashdan chalish yo‘llari surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. Andijon uslubiga misol qilib Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, M. Niyozov, M. Muhammmerdovlar ijrosida bir necha asarlarni g‘ijjak kuylari mavjud. Buxoro maktabida esa g‘ijjakning xuddi titrayotgan kamonni yurg‘uzib sadolanishi, har bir pardani o‘zida talqinlatib ya‘ni tebranish tezlashishi bilan xosdir. Buxoro g‘ijjakchilik maktabidan Haydarqul Qorovulbegini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Xorazm maktabi ijro uslubi shiddat, kamonni urg‘u bilan tortish , ayni payitdayumshoq to‘lqinlatish bilan Andijon, Buxoro maktablaridan ajralib turadi. Mazkur maktabda Matyoqub Xarratov, Ollanazar Xasanovlar ijrosidagi bir necha asarlarni misol qilib keltirish mumkin.[9]

An‘anaviy g‘ijjak yakkanavoz cholg‘u, ayni payitd jo‘rnavoz soz sifatida keng qo‘llanilgan. 1970- yildan boshlab g‘ijjakni yakkanavoz va milliy cholg‘u ansambl tarkibida alohida ko‘rsatish unda o‘ziga hos kuy tuzilmalarni, badiha tarzidav chalish usullari Abduhoshim Ismoilov, Ahmadjon Dadayev kabi mohir g‘ijjakchiklar ijrosida ommalashgan.

O‘zbekiston hududida cholg‘u ansambllari XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridan shakillangan. Dastlab ansamblning ilk namoyishlari ikki ijrochi tomonidan jo‘rnavoz bo‘lib ijro etilgan. XIX asrning oxirida ansambl tarkibida ikkita tanbur, dutor, qo‘biz, doira kabi cholg‘ularda iborat bo‘lgan.

50-yillarga kelib o‘zbek mumtoz usiqasiga e‘tibor tobora kuchayadi. O‘zbekiston radiosи qoshida ansabli tuziladi. Bu ansamblga o‘z zamonasining yetuk maqomdon sozanda va xonandalari taklif etiladi. Buni biz ansambl ijrochiligi amaliyotida eng nufuzli hamda mukammal jamoa deb hisoblaymiz. Ushbu baddiy jamoa, faqatgina10

yillik faoliyati davomida Shashmaqomning barcha nasr bo‘limi musiqiy namunalarini va bir qator mushkilot qismlaridan asarlarni o‘zlashtirib tasmalarga yozdirishga muyassar bo‘lishgan.

O‘zbekiston mustaqilliqga erishgandan so‘ng milliy musiqaga , xususan, an‘anaviy cho‘gilarga bo‘lgan qiziqishlar yildan yillga tobora kuchayib bordi. An‘anaviy cholg‘ularga qiziqish samarasi natijasida musiqa maktablarida, kollej, litseylarda an‘anaviy cholg‘ulardan tuzilgan ansambllar soni ko‘payib bormoqda va ansambl ishtirokchilar soni ko‘payib bormoqda.

O‘zbek an‘anaviy cholg‘ular tasnifotini ikki yirik olimlar V. Belyayev va F. Karamatovlar ko‘rib chiqgan.

1972-yil Toshkent Davlar Konservatoriyasida “An‘anaviy ijrochilik” hamda “Musiqiy Sharqshunoslik” kafedrasи ochilishi bilan an‘anaviy musiqa yanada chuqurroq va e‘tibor bilan o‘rganilish boshlandi. Dastlab 2021 yil Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati institutining An‘anaviy cholg‘ular ansambli aynan shu yildan boshlab faoliyat yuritishni boshladi. Mu milliy ansamblida doira, g‘ijjak , nay, qonun, chang, rubob, ud, dutor, tanbur kabi bir nechta cholg‘ulardan iborat bo‘lib xozirgi kunga qadar ushbu ansambl faoliyati davom ertmoqda.

Xozirgi kundagi an‘anaviy ansamblning bir muammolaridan biri bu ansamblida g‘ijjak va nay ovozlari jaranglaydi lekin dutor va tanbur ovozlari esa eshitilmaydi.

Biz ansamblga shunday yangilik kiritishimiz kerakki ansamblda nay va g‘ijjak kabi dutor va tanbur cholg‘ularini ovozi ansamblda eshitilib turishi lozim.

Ayni payitda an‘anaviy ansambllar vohaviy, uslubiy xusisiyatlar doirasida shakillanib borayotganini guvohimiz. Bunga Buxoro, Xorazm, Toshkent- Farg‘ona, Samarqand, Andijon viloyatlarida faoliyat olib borayot maqom ansambllarini keltirishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. H. Nurmatov, O.Nazarov, Sh, Janaydarov “ Cholg‘uchilar ansambl ” T 2005
2. S. Begmatov, N Qodirov “Ansambl sinfi” T 2008
3. Zulxorbek Turapov “Ansambl” T 2007
4. Oydin Abdullayeva Ansambl cholg‘ularini o‘rganish T. 2006
5. Salohiddin Azizboyev “Ansambl sinfi: An‘anaviy cholg‘u ijrochiligi” T 2018
6. Z. Nazarov “An‘anaviy ansambl” T 2005
7. Salohiddin Azizboyev “An‘anaviy cholg‘u ansambl” T 2009
8. Shavkat Matyakubov “An‘anaviy ijrochilik san‘at tarixi” T 2015
9. Wikipediya ma‘lumotlari